# YO‘RIQNOMA

O‘zbekiston Respublikasi ochiq ma’lumotlar portalining foydalanuvchisi uchun

**Rol:** Foydalanuvchi

**YO‘RIQNOMA**
**O‘zbekiston Respublikasi ochiq ma’lumotlar portalining foydalanuvchisi uchun**

**Ochiq ma’lumotlar pasporti** – operator tomonidan shakllantiriladigan va ochiq ma’lumotlar haqida qisqacha ma’lumotlarni o‘z ichiga oladigan axborotdir.

Ochiq ma’lumotlar portaliga kirish **data.egov.uz** manzili orqali amalga oshiriladi.

Portalga kirilganda, asosiy sahifa quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi:

- **Ochiq ma’lumotlar to‘plamlari haqidagi ma’lumotlar:**
  - **Pasport** – ochiq ma’lumotlar to‘plami haqida umumiy ma’lumotlar;
  - **Tuzilma** – ma’lumotlar tarkibi tuzilmasi;
  - **Jadval** – ma’lumotlarning o‘zi;
  - **Veb-xizmat** – integratsion shlyuz orqali ma’lumot almashinuvi;
  - **Versiyalar** – ma’lumotlarning versiya tarixi.
- **Qidiruv tizimi (kengaytirilgan qidiruv funksiyasi bilan):**
  - **Ma’lumotlar to‘plami identifikatori (ID)** – ma’lumotlar to‘plami ID raqami bo‘yicha qidiruv;
  - **Nomi** – ma’lumotlar to‘plami nomi bo‘yicha qidiruv;
  - **Tashkilot** – tashkilotlar kesimida qidiruv;
  - **Kalit so‘zlar** – kalit so‘zlar bo‘yicha qidiruv.
- **Statistika:**
  - **Eng dolzarb to‘plamlar** – eng so‘nggi va faol yangilanayotgan to‘plamlar;
  - **Eng mashhur to‘plamlar** – eng ko‘p yuklab olingan ma’lumotlar;
  - **Qo‘llanilish sohasi** – ma’lumotlarning qo‘llanilish sohasi bo‘yicha tahlil.
- **Portal yangiliklari:** So‘nggi yangiliklar.
- **Mashhur takliflar:** Yangi ma’lumotlar to‘plamini qo‘shish bo‘yicha foydalanuvchilar takliflari ovozga qo‘yiladi.
- **Sayt bo‘yicha navigatsiya:**
  - **Tashkilotlar** – tashkilotlar kesimidagi ma’lumotlar to‘plamlari soni statistikasi;
  - **Monitoring** – ma’lumotlar to‘plamlarining o‘z vaqtida yangilanish holati;
  - **Statistika** – ma’lumotlar to‘plamlari bo‘yicha umumiy statistika;
  - **Takliflar** – yangi ma’lumotlar to‘plamlarini qo‘shish bo‘yicha takliflar ro‘yxati;
  - **Yo‘riqnomalar** – portalda ishlash bo‘yicha foydalanuvchilar uchun yo‘riqnomalar;
  - **Qayta aloqa** – portal bo‘yicha taklif va mulohazalarni yuborish shakli;
  - **Oldingi versiya** – portalning avvalgi versiyasiga o‘tish havolasi;
  - **Savol-javob** – tez-tez beriladigan savollar va ularga javoblar;
  - **Glossariy** – ochiq ma’lumotlar sohasida qo‘llaniladigan atamalar lug‘ati;
  - **Portal haqida** – portal haqida umumiy ma’lumotlar;
  - **Ochiq ma’lumotlar haqida** – O‘zbekiston ochiq ma’lumotlar portali haqida umumiy ma’lumot;
  - **Foydalanish shartlari** – ochiq ma’lumotlardan foydalanish qoidalari;
  - **Qonun hujjatlari** – ochiq ma’lumotlar sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar.


Portal menusi
Interaktiv panel
Qidiruv moduli
Statistika
Yangiliklar bo‘limi
OCHIQ MA'LUMOTLAR PORTALI
Tashkilotlar
Yangiliklar
Monitoring
Statistika
SI ma'lumotlari
Ma'lumotlar to'plamlari
O'zbekcha
Kirish
O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar portali
Ochiq ma'lumotlardan qidirish...
Izlash
Ma'lumotlar to'plamlari - 10445
Tashkilotlar - 162
Yuklab olish - 838977
Veb xizmat - 69394
Hudud 569
Iqtisodiyot 3323
Sog'liqni saqlash 693
Ta'lim 757
Madaniyat 67
Biznes 141
Ko'chmas mulk 217
BRM 127
Turizm va sport 50
Sug'urta 4
Transport 237
Ekologiya 157
Bandlik va ijtimoiy himoya 1566
Moliya 1040
Savdo 303
Huquqbuzarlik 43
Qishloq xo'jaligi 1030
AKT 97
Adliya va sud 24
Orol bo'yi mintaqasi 4501
Eng dolzarb ma'lumotlar
Eng mashhur ma'lumotlar
Kompyuter tomografiyasi va monografiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar (shaxsiy identifikatsiyasiz)
O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi
Yangilangan: 01-01-0001
"Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ xarid qilinishi rejalashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) to'g'risidagi ma'lumotlar
Olmaliq kon-metallurgiya kombinati AJ
Yangilangan: 07-01-2025
Jamoat transporti harakati to'g'risidagi ma'lumotlar
O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi
Yangilangan: 14-12-2022
Uy-joy sharoitini yaxshilashga muxtoj fuqarolar to'g'risida ma'lumot
Toshkent viloyati hokimiyati
Yangilangan: 21-10-2025
Toshkent shahri bo'yicha avtobus va yo'nalishli taksilarda yo'lovchilarni harakatlanishi to'g'risidagi ma'lumotlar
O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi
Yangilangan: 14-10-2025
Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ amalga oshirgan davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlar
Olmaliq kon-metallurgiya kombinati AJ
Yangilangan: 17-10-2025
Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti tarkibi (jamiga nisbatan foizda)
O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi
Yangilangan: 11-08-2025
Ustav fondi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ko'p bo'lgan xo'jalik yurituvchi jamiyatlar ro'yxati
O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi
Yangilangan: 20-10-2025
Portal yangiliklari
Barcha yangiliklar
Toshkent viloyatida ochiq ma'lumotlar bo'yicha xalqaro seminar-trening bo'lib o'tdi
O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining (YeXHT...
05-08-2025
Batafsil...
O'zbekiston ODIN reytingida dunyoda 12-o'ringa ko'tarildi
O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar bo'yicha xalqaro Open Data Inventory (ODIN) reytingida 2024-yil...
01-05-2025
Batafsil...
Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT)ning O'zbekistondagi loyihalar koordinatori bilan uchrashuv...
Joriy yilning 20-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik...
02-04-2025
Batafsil...


Eng ko'p yuklab olingan ma'lumotlar to'plami
Xodimlar sifatida muvofiqlikni baholash sohasida ishtirok etishni talab qiladigan sertifikatlangan mutaxassislar ro'yxati 20846
Faoliyat yurituvchi advokatlar, advokatlik byurolari, firmalari, advokatlar hay'atlari ro'yxati 12871
"Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ xarid qilinishi rejalashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) to'g'risidagi ma'lumotlar 11057
Uy-joy sharoitini yaxshilashga muxtoj fuqarolar to'g'risida ma'lumot 10130
Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ amalga oshirgan davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlar 8659
Batafsil...
Qo'llanilish sohasi
OAV 13235
Shaxsiy maqsadlar 59364
Ilovalarni ishlab chiqish 16322
Tadqiqot ishlari 74909
Boshqa 47718
Qo'shimcha statistika
Mashhur so'rovlar
Barcha so'rovlar
Toshkentdagi klinikalar ro'yxati 713 Ovoz berish
Qishloq xo'jaligi ekin maydonlari, shu jumladan ularning konturlari va chegaralari to'g'risidagi ma'lumotlar 83 Ovoz berish
O'zbekistonning davlatlararo va xalqaro moliya tashkilotlari kesimidagi tashqi qarz taqsimoti 77 Ovoz berish
Yangi ma'lumotlar to'plamlarini qo'shish bo'yicha takliflar (ovoz berish uchun)
OCHIQ MA'LUMOTLAR PORTALI
© 2015–2025 Barcha huquqlar himoyalangan
Litsenziya:
Gold
Xabarlar
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi:
(+998) 71-203-80-00 (1385)
Texnik yordam:
(+998) 55-501-36-06 (1085)
Elektron pochta
opendata@egov.uz
Manzil
100170, Toshkent sh., Mustaqillik shoh ko'chasi, 63
Sayt xaritasi
Ochiq ma'lumotlar haqida
Portal haqida
Foydalanish shartlari
Qonunchilik hujjatlari
Tashkilotlar
Monitoring
Statistika
Yangiliklar
Tadbirlar taqvimi
Real vaqtdagi ma'lumotlar
Takliflar
Yo'riqnoma
Qayta aloqa
Foydali havolalar
old.data.gov.uz
egov.uz
id.egov.uz
cs.egov.uz
reestr.uz
Sayt materiallaridan to'liq yoki qisman foydalanilganda, saytga havola qilish majburiydir
Sayt Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi tomonidan ishlab chiqilgan
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI
Sayt xaritasi

Bosh sahifada ochiq ma’lumotlarga ular tegishli bo‘lgan faoliyat sohalari bo‘yicha o‘tish mumkin.




Ma’lum bir soha tanlanganda, ushbu soha bilan bog‘liq ma’lumotlar ro‘yxati ekranda chiqariladi:




Ro‘yxat orqali ma’lum bir ma’lumotlar to‘plamini tanlash mumkin, tanlangan to‘plam bo‘yicha esa uning pasporti (ya’ni ma’lumotlar to‘plami haqidagi ma’lumot) ochiladi.

Asosiy › Iqtisodiyot › O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi › 2-003-0006

## 2-003-0006 Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida bojxona to‘lovlariga oid imtiyozlarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlar ro‘yxati

Jadval | **Ma'lumot to'plami pasporti** | Tuzilma | Veb xizmat | Talqinlar

Ma'lumotlar to'plami identifikatsiya raqami (kodi)

2-003-0006

Ma'lumotlar to'plami nomi

Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida bojxona to‘lovlariga oid imtiyozlarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlar ro‘yxati

Ma'lumotlar to'plami tavsifi

Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida bojxona to‘lovlariga oid imtiyozlarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlar ro‘yxati

Ochiq ma'lumotlarni taqdim etuvchi tashkilot

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi

Ma'lumotlar to'plamiga mas'ul shaxs

Bobokulov Boxodirjon Alisher o‘g‘li

Mas'ul shaxs bilan bog'lanish

Telefon raqami: +(998) 55 502-76-00
E-mail: bojxona@umail.uz
Boshqa veb-resurslardagi ochiq ma'lumotlar to'plamiga havola: https://bojxona.uz/oz

Ma'lumot shakli

xml | csv | json | xls | rdf

| Ma'lumotlar uchun havolalar | Uzb | UzbKr | Rus | Eng |
|---|---|---|---|---|

Birinchi chop etilgan sana

29-07-2021

Ochiq ma'lumotlar to'plamining mazmuniga mos keladigan kalit so'zlar (vergul bilan) *
bojxona, tulov

So'nggi o'zgartirilgan sana

08-04-2024

Ma'lumotlar to'plamiga ovoz berish

★★★★★
4 (2 ovozlar)

| | | |
|---|---|---|
| ★ 5 | | 1 |
| ★ 4 | | 0 |
| ★ 3 | | 1 |
| ★ 2 | | 0 |
| ★ 1 | | 0 |

Fikrlar

**Ma’lumotlar to‘plami pasporti ochilganda quyidagi ma’lumotlar aks etadi:**

- Ma’lumotlar to‘plamining identifikatsiya raqami (kodi);
- Ma’lumotlar to‘plamining nomi;
- Ma’lumotlar to‘plami egasi (mas’ul tashkilot);
- Mas’ul shaxsning aloqa ma’lumotlari:
  - Telefon raqami;
  - Elektron pochta manzili;
  - Ma’lumotlar to‘plamining boshqa veb-resurslardagi havolasi;
- Ma’lumotlar formati (xml, csv, json, xls, rdf);
- Ma’lumotlar to‘plami birinchi marta e’lon qilingan sana;
- Ochiq ma’lumotlar mazmuniga mos kalit so‘zlar (vergul bilan ajratilgan holda);
- So‘nggi o‘zgartirish kiritilgan sana;
- Ma’lumotlar to‘plamini baholash bo‘limi;
- Fikr va izohlar (kommentariyalar).

“Tuzilma” bo‘limiga o‘tilganda, ma’lumotlar turlari ko‘rsatilgan tuzilma ekranda chiqadi va uni json hamda csv formatlarida yuklab olish mumkin bo‘ladi.

2-003-0006 Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida bojxona to‘lovlariga oid imtiyozlarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlar ro‘yxati

Jadval | Ma'lumot to'plami pasporti | Tuzilma | Veb xizmat | Talqinlar

Yuklab olish: json csv

| Ketma-ketlik | Code | Maydon turi | O'zbek tilida nomi (lotin) | O'zbek tilida nomi (kiril) | Rus tilida nomi | Ingliz tilida nomi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Hujjatturi | String | Hujjat turi | Хужжат тури | Тип документа | Document type |
| 2 | Hujjatsanasi | Sana | Hujjat sanasi | Хужжат санаси | Дата документа | Date of document |
| 3 | Hujjatraqami | String | Hujjat raqami | Хужжат рақами | Номер документа | Document number |
| 4 | Hujjatnomi | String | Hujjat nomi | Хужжат номи | Наименование документа | Name of document |
| 5 | Band | String | Band | Банд | Пункт | Item |
| 6 | Boj | String | Boj | Бож | Пошлина | Duty |
| 7 | Aksiz | String | Aksiz | Акциз | Акциз | Excise |
| 8 | QQS | String | QQS | ҚҚС | НДС | VAT |
| 9 | utilizasiyayigimi | Matn | utilizasiya yig'imi | утилизация йиғими | утилизационный сбор | Tax |
| 10 | Tarmoq | Matn | Tarmoq | Тармоқ | Сектор | Sektor |

“Jadvallar” bo‘limiga o‘tilganda, ma’lumotlar to‘plamining o‘zi ekranda aks etadi va uni xml, csv, json, xls hamda rdf formatlarida yuklab olish mumkin bo‘ladi.




“Veb-xizmat” bo‘limiga o‘tilganda, foydalanuvchiga ma’lumotlar to‘plamlarini o‘z axborot tizimi yoki resursiga integratsiya qilish, ya’ni ma’lumotlarni real vaqt rejimida olish imkoniyati yaratiladi.



“Tokenni olish” tugmasi bosilgandan so‘ng, foydalanuvchiga tizim API’si bilan integratsiya qilish uchun mo‘ljallangan kirish tokeni (kalit) va URL manzili ko‘rsatiladi.




“Yuborish” tugmasi bosilganda, integratsiya jarayonida ko‘rsatilishi uchun json formatidagi ma’lumotlar ekranda chiqadi.



“Versiyalar” bo‘limiga o‘tilganda, ma’lumotlarning versiyalari (o‘zgarish tarixi) so‘nggi yangilanish sanasi bilan birga ko‘rsatiladi va ularni xml, csv, json hamda xls formatlarida yuklab olish imkoniyati mavjud bo‘ladi.




Bosh sahifada ma’lumotlarni izlash uchun qulay qidiruv filtri mavjud. U orqali ma’lumotlar to‘plamini uning ID raqami, nomi, tashkilot nomi yoki tegishli kalit so‘zlar bo‘yicha topish mumkin. Qidiruv maydoniga kerakli ma’lumot kiritilgandan so‘ng “Izlash” tugmasi bosiladi.




**Bosh sahifada foydalanuvchilar bilan operatorlar o‘rtasidagi o‘zaro muloqotni ta’minlaydigan interaktiv panel mavjud. U quyidagi bo‘limlardan iborat:**

- tez-tez beriladigan savollar;
- foydalanuvchilar so‘rovi (so‘rovnoma);
- yangi ma’lumotlar to‘plamini so‘rash;
- fikr-mulohaza (aloqa).

**Tez-tez beriladigan savollar** bo‘limiga o‘tish uchun foydalanuvchi portaldagi interaktiv panelning **“Savol-javob”** qismiga kiradi.
Mazkur bo‘limda foydalanuvchi portal faoliyatiga oid muhim savollarga javoblarni ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi.




**Bundan tashqari, interaktiv panelda foydalanuvchilarning portal haqidagi fikrini bilish maqsadida mo‘ljallangan “Foydalanuvchilar so‘rovi” bo‘limi ham mavjud.**
Ushbu bo‘limda foydalanuvchilar quyidagi savollarga javob berish orqali o‘z fikrlarini bildirishlari mumkin:

- Siz bizning saytni qanday topdingiz?
- Qidirgan ma’lumotingizni topdingizmi?
- Quyidagi variantlardan qaysi biri sizning data.egov.uz ma’lumotlaridan foydalanish sababingizni eng to‘liq ifodalaydi?

**Ushbu qisqa so‘rovnoma keyingi oynada namoyon bo‘ladi.**




**Portalning interaktiv panelidagi “Yangi ma’lumotlar to‘plamini so‘rash” bo‘limi foydalanuvchilarga portal operatorlariga murojaat qilish imkonini beradi.**
Ushbu bo‘lim orqali foydalanuvchilar ochiq ma’lumotlar portalida hozircha mavjud bo‘lmagan, ammo aholining amaliy faoliyatida muhim hisoblangan yangi ma’lumotlar to‘plamlarini qo‘shishni so‘rashlari mumkin.

Mazkur bo‘limga kirilganda foydalanuvchiga quyidagi ma’lumotlarni kiritish uchun maxsus so‘rov oynasi taqdim etiladi:

- ma’lumotlar to‘plamining nomi;
- qisqacha tavsifi;
- ushbu ma’lumotlar tegishli deb hisoblangan soha nomi.

Kiritilgan ma’lumotlar asosida so‘rov batafsil tahlil qilinadi va tegishli davlat tashkiloti aniqlanib, ushbu ma’lumotlarni taqdim etish hamda portalda e’lon qilish imkoniyati ko‘rib chiqiladi.




**So‘rov shaklida zarur ma’lumotlar kiritilgandan so‘ng, foydalanuvchi “Yuborish” tugmasini bosish orqali ushbu so‘rovni operatorga yuboradi.**

So‘rov operatorga kelib tushganidan keyin, u mazmunini ko‘rib chiqadi va uni bosh sahifada ovoz to‘plash uchun e’lon qiladi. Ma’lum miqdorda ovoz to‘plangach va taklif etilayotgan ma’lumotlarning dolzarbligi inobatga olingan holda, operator tegishli vakolatli davlat organiga ushbu ma’lumotlarni ochiq tarzda e’lon qilish imkoniyati haqida murojaat qiladi.

Agar davlat organi ijobiy qaror chiqarsa, u kerakli ma’lumotlarni operatorga taqdim etadi va operator ularni portaldan joylashtiradi.

**Interaktiv paneldagi “Fikr-mulohaza” bo‘limi esa foydalanuvchilarga portal faoliyatiga oid taklif va izohlarini yuborish imkonini beradi.**
Ushbu bo‘lim ochilganda foydalanuvchi quyidagi maydonlarni to‘ldirgan holda murojaatini yuborishi mumkin:

- F.I.Sh. (familiya, ism, sharif);
- elektron pochta manzili;
- xabar matni (fikr yoki taklif).




Portal bosh sahifasining menyusida joylashgan “Tashkilotlar” bo‘limi davlat tashkilotlari kesimida joylashtirilgan ma’lumotlar to‘plamlari soni haqida ma’lumotni ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan.




Portal bosh sahifasi menyusida joylashgan “Yangiliklar” bo‘limi operatorlar tomonidan joylashtiriladigan portal yangiliklarini ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan.




Portal bosh sahifasi menyusida joylashgan “Monitoring” bo‘limining “Yangilangan ma’lumotlar to‘plamlari” kichik bo‘limi davlat tashkilotlari tomonidan portalga kiritilayotgan va yangilanayotgan ma’lumotlarni monitoring qilish uchun mo‘ljallangan.




Ushbu oynada portalga qo‘shilgan va yangilangan ma’lumotlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks ettiriladi.

Portal bosh sahifasi menyusida joylashgan “Monitoring” bo‘limining “Eskirgan ma’lumotlar to‘plamlari” kichik bo‘limi esa portalda o‘z vaqtida yangilanmagan ochiq ma’lumotlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan.



Portal bosh sahifasi menyusida joylashgan “Monitoring” bo‘limining “Monitoring” kichik bo‘limi portalda joylashtirilgan ochiq ma’lumotlar to‘plamlarini o‘z vaqtida yangilab borayotgan davlat organlari kesimidagi statistik ma’lumotlarni ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan.

## Monitoring

Yangilangan to'plamlar | Eskirgan to'plamlar | **Hisobot**

Izlash | Izlash | Jadvalni yuklab olish

| Vazirliklar | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Tashkilot | To'plamlar | | To'ldirilmagan | | Yangilangan | | Rad etilgan | | Eskirgan | |
| | Jami | PF-6247 | Jami | PF-6247 | Jami | PF-6247 | Jami | PF-6247 | Jami | PF-6247 |
| O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi | 28 | 10 | 0 | 0 | 28 | 10 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi | 28 | 6 | 0 | 0 | 28 | 6 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi | 32 | 6 | 0 | 0 | 32 | 6 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi | 35 | 7 | 0 | 0 | 35 | 7 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi | 21 | 4 | 0 | 0 | 15 | 1 | 0 | 0 | 6 | 3 |
| O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi | 82 | 4 | 0 | 0 | 60 | 4 | 0 | 0 | 22 | 0 |
| O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi | 26 | 2 | 0 | 0 | 21 | 2 | 0 | 0 | 5 | 0 |
| O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi | 9 | 0 | 0 | 0 | 9 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi | 15 | 4 | 0 | 0 | 4 | 0 | 0 | 0 | 11 | 4 |
| O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi | 14 | 5 | 1 | 1 | 3 | 0 | 0 | 0 | 10 | 4 |
| O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi | 14 | 4 | 1 | 0 | 3 | 0 | 0 | 0 | 10 | 4 |
| O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi | 35 | 5 | 0 | 0 | 27 | 5 | 0 | 0 | 8 | 0 |
| O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi | 35 | 6 | 2 | 0 | 18 | 0 | 0 | 0 | 15 | 6 |
| O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi | 18 | 5 | 0 | 0 | 18 | 5 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligi | 26 | 4 | 0 | 0 | 9 | 0 | 0 | 0 | 17 | 4 |
| O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi | 17 | 4 | 1 | 0 | 16 | 4 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi | 32 | 17 | 0 | 0 | 32 | 17 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi | 31 | 5 | 1 | 1 | 30 | 4 | 0 | 0 | 0 | 0 |

**Portal bosh sahifasi menyusida joylashgan “Statistika” bo‘limi ma’lumotlar to‘plamlariga oid statistik ma’lumotlarni aks ettirish uchun mo‘ljallangan. U quyidagi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi:**

- Ma’lumotlar to‘plamlari reytingi;
- Eng yuqori baholangan ma’lumotlar to‘plamlari;
- Eng ko‘p yuklab olingan ma’lumotlar to‘plamlari;
- Qo‘llanish sohasi;
- Rad etilgan ma’lumotlar to‘plamlari;
- Eng mashhur qidiruv so‘rovlari.




Portal bosh sahifasi menyusida joylashgan “Sun’iy intellekt ma’lumotlari” bo‘limi, sun’iy intellekt sohasida qo‘llanish ehtimoli yuqori bo‘lgan ochiq ma’lumotlar to‘plamlarini ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan.




**Ko‘rish qobiliyati cheklangan foydalanuvchilar uchun mo‘ljallangan funksiya (imkoniyati)dan foydalanish uchun portal bosh sahifasi menyusidagi maxsus tugmani bosish kerak.**




“Qonunchilik hujjatlari” bo‘limida ochiq ma’lumotlar sohasidagi faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar joylashtirilgan.



MA'LUMOTLAR PORTALI | Tashkilotlar | Yangiliklar | Monitoring | Statistika | SI ma'lumotlari | Ma'lumotlar to'plamlari | O'zbekcha | Kirish

Asosiy › Qonunchilik hujjatlari

## Qonunchilik hujjatlari

- DAVLAT BOSHQARUVINING OCHIQLIGI VA SHAFFOFLIGINI TA'MINLASH HAMDA MAMLAKATNING STATISTIKA SALOHIYATINI OSHIRISH YUZASIDAN QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RISIDA
- O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XALQARO REYTING VA INDEKSLARDAGI O'RNINI YAXSHILASH HAMDA DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARIDA ULAR BILAN TIZIMLI ISHLASHNING YANGI MEXANIZMINI JORIY QILISH TO'G'RISIDA
- O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MILLIY STATISTIKA TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA
- "RAQAMLI O'ZBEKISTON — 2030" STRATEGIYASINI TASDIQLASH VA UNI SAMARALI AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA
- SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JADAL JORIY ETISH UCHUN SHART-SHAROITLAR YARATISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA
- DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARINING FAOLIYATI OCHIQLIGINI TA'MINLASH, SHUNINGDEK, JAMOATCHILIK NAZORATINI SAMARALI AMALGA OSHIRISHGA DOIR QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RISIDA
- RAQAMLI IQTISODIYOT VA ELEKTRON HUKUMATNI KENG JORIY ETISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA
- O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OCHIQ MA'LUMOTLAR SOHASINI YANADA RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA